

UMARALI NORMATOVNING MUNAQQIDLIK MAHORATI

Qurdosh Qahramonov

TDPU professori, filologiya fanlari doktori

Annotatsiya

Haqiqiy badiiy uchini ko'rsatish, asarning asl maqsadini anglatish, mahoratini ko'rsatish munaqqidlikning asosiy vazifasidir. Hamda uni anglash, asarlari ortidan kelgan bir olam go'zal taassurotlarni bayon etish, tushuntirish baxti hammaga ham nasib qilavermaydi. Shunday odamlar borki, ularning qilgan ezgu amallari, faoliyat qamrovining kengligini ko'rib, inson qurbi, salohiyatining cheksizligiga yana bir karra ishonch hosil qilasiz. Olim va munaqqid Umarali Normatov hayot yo'li ana shunday kengliklardan tashkil topgan. Maqolada zamonaviy o'zbek adabiyotshunosligida alohida o'ringa ega olim, professor Umarali Normatovning munaqqidlik mahorati borasida so'z boradi.

Kalit so'zlar

asar, yozuvchi, adib, adabiyotshunoslik, adabiy tanqid, adabiy-ilimiy faoliyat, taqriz, umidbaxsh tamoyillar, maqolalar, adabiy tafakkur, adabiy muhit.

Munaqqid mahorati keng tushuncha. Muayyan badiiy asarni o'qish, o'qiganini uqish, anglash, anglaganini keng kitobxonga anglatish, tadqiq va talqin etishdan tortib adabiy jarayonda kechgan va kechayotgan o'zgarishlarni, yangilanayotgan tamoyillarni teran kuzatishlar asosida belgilash, nafaqat belgilash, balki ushbu jarayonning faol ishtirokchisiga aylanish, shu asosda uning ob-havosiga ta'sir ko'rsatishdek keng muhitni qamrab oladigan adabiy tushunchadir.

Albatta, adabiy jarayon o'z nomi bilan jarayon. U uzliksiz harakatda o'zini yangilab borayotgan, har bir yaratilgan asar, chinakam badiiyat namunasida yangi qarashlar, oqim va yo'nalishlarga yo'l ochayotgan, zamonasoz, o'tkinchi tushuncha va aqidalarni inkor etish baravarida, mudom o'zligini namoyon etayotgan adabiy hodisadir. Binobarin, mana shunday doimo yangilanishda bo'lgan, takomillashib borish taqozo etiladigan ijodiy maydonda o'zining muqim o'rniga ega bo'lish, nafaqat ega bo'lish, balki shu jarayonga o'z hissasini qo'shib borish munaqqiddan tinimsiz ilmiy-ijodiy izlanish va teran ijodkorlikni talab etadi.

O'zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligi tarixida bunday faol munaqqidlar ko'pchilikni tashkil etgan. Ularning ko'pchiligi qariyb yarim asrlik faoliyatlari davomida adabiy jarayonning yetakchi tamoyillarini belgilab kelishdi. Bu borada ayniqsa o'tgan asrning 60-yillaridan

to mustaqillikka erishganimizdan keyin ham adabiyot maydonida faoliyat yuritgan M.Qo'shjonov, O.Sharafiddinov, S.Mamajonov, N.Xudoyberganov, N.Karimov, I.G'afurov kabi munaqqidlarimizning xizmatlari beqiyosdir. Shular qatorida Umarali Normatovning ham munosib o'rne bor.

Xo'sh, U.Normatovning munaqqidlik mahorati nimalarda ko'rinadi? Olimning 60 yildan ziyod ilmiy-ijodiy faoliyatining tub asoslarini nimalar tashkil etadi. Hech kimga sir emas, asosiy umri va ilmiy faoliyati sobiq sho'rolar mafkurasiga xizmat qilgan olimlarimizning ko'pgina izlanishlari bugunga kelib eskirib, ilmiy iste'moldan chiqib ketmoqda.

Agar masalaga shu nuqtayi nazardan yondashadigan bo'lsak, olimning ilmiy izlanishlariga jon ato etib, ichdan nurlantirib turadigan asosiy omil badiiyatning azaliy qonuniyatlarini teran anglash, so'z san'atining eskirmas qoidasi bo'lgan insonshunoslik ekanini qalban his etish va shu asosda tahlil va talqinlarining tub zamirini shaxs jumbog'i bilan bog'lashida ko'rinadi.

Olim 50-yillarning oxirlarida chop etilgan "Yosh prozaiklarning ba'zi yutuq va kamchiliklari" nomli dastlabki maqolasidan boshlab asosan zamonaviy o'zbek nasri muammolari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib bordi. O'tgan vaqt davomida chop etilgan aksariyat maqola va tadqiqotlarda zamonaviy o'zbek nasriga xos yetakchi tamoyillar, ijodiy izlanishlar xususida, yaratilayotgan hikoyalardan tortib romanlargacha, barcha barchasini ijtimoiy-falsafiy, badiiy-estetik asosiga ko'ra baholashga bo'lgan intilishlarni ko'ramiz. Zamon va qahramon, davr va shaxs talqini masalasi ijodkorning poetik olami, badiiy mahorati nuqtayi nazaridan tadqiq etiladi. Har doim davr bilan hamnafaslik olim kuzatishlarining asosiy xususiyati bo'lganligini ta'kidlash joiz.

Olimning ilmiy-ijodiy faoliyatida 80-90 yillar alohida sahifani tashkil etadi. Zero, bu davr tarix sahifalariga ham ijtimoiy-siyosiy, ham madaniy-adabiy hayotda o'tish davri sifatida muhurlandi. Bu jarayon hamon davom etmoqda. Bu davrga xos bo'lgan yangilanishlar barcha jabhada o'z aks-sadosini berdi. Jumladan, adabiy tanqidda ham. Buni biz olimning "Kechagi kun odamlari" hamda "Shaxs jumbog'i" maqolalari misolida ham ko'rishimiz mumkin. Dastlabki maqolalar mustaqillik arafalarida yaratilgan bo'lsa, keyingilari oradan chamasi o'n yillar o'tgandan keyin chop etilgan.

Dastlabki maqolada garchi O.Yoqubovning "Oq qushlar, oppoq qushlar", N.Qobulning "Unutilgan sohillar" romanlari ham romanchilikda yangi davr boshlanayotganiga misol tariqasida keltirilsa-da, lekin asosan M.M.Do'stning "Lolazor" romani tahlilga tortiladi. Munaqqid romanni adabiy jarayondagi o'ziga xos hodisa sifatida baholaydi. Uni romanchilikdagi yangi yo'nalishning debochasi deb biladi. Asarning yutug'ini faqat asosiy qahramonlar Oshno va Nazar Yaxshiboyev xarakterining o'ziga xosligida emas, balki ifoda yo'sinida bir qarashda ancha sodda tilda yozilgandek taassurot qoldiradigan ifoda "...zamidagi o'ta jiddiylik, go'llik qobig'ida esa quvlik, teran ma'nodorlik borligiga e'tibor qaratadi. Bir vaqtlar qalbidagi oliyjanoblik hislari bo'lgan bu qahramonlarning fojiasi davr bilan uyg'unlikda talqin etiladi. Muhimi shundaki, munaqqid "Lolazor" timsolida o'zbek romani rivojida yangi bosqich

boshlanayotganidan bashorat qiladi. Buni romanda ko'tarilayotgan dolzarb mavzu yoki asosiy pafosini yaqin o'tmishga tanqidiy yondashuvda deb emas, balki har bir adibning g'oyaviy-estetik konsepsiyasi, uslub-ifodasi va ohangi bilan ham qimmatli deb hisoblashida ko'zga tashlanadi. Munaqqid 2001-yilda chop etilgan "Shaxs jumbog'i" nomli maqolasida "Lolazor" romaniga qayta murojaat qilar ekan, asarga yanada teranroq, yanada asosliroq mezonlar bilan yondashadi. Bu maqolada roman qahramonlari nafaqat kechagi kun odamlari sifatida talqin etiladi, ayni paytda "...butun umri ongli ravishda puch g'oyalar asosida yurtni lolazorga – bo'stonga aylantirish orzusida o'tgan odamning adashgan, aldangan kishilarning ayanchli qismati haqida bahs olib boriladi. Istiqoldan burun roman muallifi o'z qahramonlari – sho'ro odamlari, aniqrog'i mas'ul shaxslar tayangan aqidalar absurd – ma'nisiz, halokatga mahkum etilganini favqulodda bir mahorat bilan ochadi; butun boshli yirik roman sahifalarida mavj urib turgan ajib bir poetik ohang – kinoya, kesatqlar orqali o'zining badiiy hukmini o'qiydi", deya baho beradi.

Biz bu o'rinda munaqqidning bir romanga ikki xil muhitda bergan bahosidagi mushtaraklik va farqli jihatlarni qiyoslar ekanmiz, buni nafaqat munaqqid shaxsiyati va dunyoqarashidagi o'zgarishlar sifatida baholaymiz, ayni paytda shu asosda umuman o'zbek adabiyotshunosligi va adabiy tanqidchiligidagi yangilanayotgan konsepsiya sifatida ham ko'rishimiz mumkin. Zero, oradan o'tgan o'n yilliklar davri adabiy jarayon uchun chinakam izlanishlar, o'zining metodologik asoslarini qayta ko'rib chiqish davri bo'lgani barchamizga yaxshi ma'lum.

U.Normatov bu davrda, umuman istiqloq yillarida adabiyotshunoslik va tanqidchilikning barcha janrlarida samarali ilmiy izlanishlar olib bordi. Chop etilayotgan asarlarga taqrizlar yozishdan tortib adabiy suhbatlargacha, ilmiy-problematik maqolalardan yilt etgan iste'dodlarga bitilgan maktublarga kuzatishimiz mumkin. Albatta olimning munaqqidlik mahoratini faqat ijodiy faollik bilan baholash, masalaning bir tomoni xolos. Biroq bu ham olimning tinimsiz mehnati, mashaqqatli izlanishlari mahsuli ekanini nazardan soqit qilib bo'lmaydi. Biroq, yuqorida ta'kidlanganidek, ilmiy-ijodiy faoliyatining ko'p vaqti sobiq sho'rolar davriga to'g'ri kelgan, faol, biroq o'sha davr mafkurasi bilan bog'langan ko'pgina tadqiqotlar bugungi kunga kelib eskirib qolayotgani hech kimga sir emas. Albatta qariyb o'ttiz yillik mehnat faoliyati sho'ro davri bilan chambarchas bog'langan U.Normatov kuzatishlarida ham davr o'z muhrini bosgan o'rinlar uchrashi tabiiy. Lekin munaqqidning asosiy kuzatish va izlanishlari qaysi davrda yaratilganidan qat'i nazar bugun ham adabiyotimiz xizmatida ekanining bosh sababi ham inson omili bilan bog'liq.

Munaqqidning istiqloq yillarida yozgan tadqiqotlarining mavzu ko'lami nihoyatda keng, adabiy jarayonda bo'layotgan o'zgarishlarning deyarli barcha tomonlarini qamrab olgan desak, mubolag'a bo'lmaydi. Bu kuzatishlarda adabiy jarayondagi yangilanish tamoyillaridan tortib, adabiy merosni qayta baholash masalalarigacha, ijodiy metod va oqimlar, xususan, absurd adabiyot, modernizm haqidagi masalalargacha qamrab olinganiga guvoh bo'lamiz. 1993-yilda chop etilgan "Umidbaxsh tamoyillar" nomli maqolasi ham shu jihati bilan o'ziga

xosdir. Munaqqid umidbaxsh tamoyillar deganda adabiyotdagi yangilanishlarni, yangicha yondashuvlar asosida yaratilayotgan asarlarni nazarda tutadi. Hayotdagi o'zgarishlar haqida fikr yuritar ekan, eng avvalo odamga bo'lgan munosabat yangilanayotganini ta'kidlaydi. Uni faqat ijtimoiy munosabatlar mahsuli emas balki, "ko'proq ilohiy, tug'ma-tabiiy, sirli, sehrlil mavjudot tarzida ko'rsatuvchi, uning ijtimoiy, tarixiy sharoit-tuzum, davlat, siyosat, mafkuraga bo'ysunmaydigan g'aroyib tuyg'u, hislatlarini ong-idrokdan tashqaridagi anglab yetilmagan holatlarini badiiy tatbiq etuvchi, eksiztensializm falsafasiga tayanuvchi asarlar ham yaratilayotir yoki shu kabi talqinlar kengroq ildiz otib borayotir. Bu foniy dunyoning omonat, tagi puch g'oyalari aldangan shaxs umrining, mehnatining bema'niligini qabariq tarzda, ko'pgina ramziy-majoziy timsollar vositasida butun keskinligi, fojiasi bilan ko'rsatuvchi absurd asarlar, absurd qahramonlar ham ko'payib qoldi". Munaqqid maqolada bu boradagi ko'plab asarlarni sanab o'tsa-da, o'z qarashlarini ko'proq Nazar Eshonqul hikoyalari tahlili bilan asoslashga qaratadi. Maqolada oltin o'rtalik sifatida Shukur Xolmirzayevning "Quyoshku falakda qizib yuribdi ..." hikoyasi an'anaviy realistik asar namunasi sifatida talqin etilib, adabiy jarayondagi xilma-xillik namunasi sifatida taqdim etiladi.

Olimning adabiy hayotdagi bu kabi yangilanishlar haqidagi kuzatishlari, ayniqsa absurd asarlar haqidagi fikr-mulohazalari turli xil bahs-munozaralarga sabab bo'lganini ham ta'kidlash joiz. Bu xil qarashlarga e'tiroz bildiruvchilar ham, qo'llab-quvvatlovchilar ham o'z fikr-mulohazalarini bayon etdi, asoslashga harakat qilishdi. Bu esa alohida masaladir. Bu o'rinda biz e'tibor qaratgan narsa olimning maqoladagi tahlilga tortilgan turli saviya va ifoda usulida bitilgan asarlarni tahlil etishdagi bosh mezon, uning markazida turuvchi bosh masala har doim ham inson obrazini yaratishga e'tibor bilan belgilanishini ta'kidlashdan iborat.

Olim absurd deb belgilovchi Nazar Eshonqul hikoyalarini tahlil qiladimi yoki Sh. Xolmirzayev, O.Yoqubov, A.Muxtor, O.Muxtor asarlariga murojaat qilishidan qat'i nazar barcha kuzatishlaridan qizil ip bo'lib o'tadigan mezon – maqola boshida keltirilgan "shaxs jumbog'i" masalasi ekani ko'rinadi. Menimcha, munaqqid kuzatishlariga jon bag'ishlab, mahoratini namoyon etib turadigan asosiy xususiyat ham ana shunda bo'lsa kerak.

U. Normatov "Sukutda emas, harakatda" nomli maqolasida so'nggi davr tanqidchiligining adabiy jarayondan uzilib qolgani haqidagi xavotirlarga munosabat bildirar ekan, bu xavotirlarda jon bor ekanligini ta'kidlash bilan birga, buning sababini quyidagi mulohazalarida ko'rsatib o'tadi. "90-yillar davomida faol fidoyi tanqidchilarimiz uchun joriy adabiy jarayondan ko'ra yangi o'zbek adabiyoti tarixini qayta idrok etish, baholash muhimroq va zaruriyroq bo'lib tuyuldi". Darhaqiqat, munaqqid ta'kidlayotgan masala istiqlolning dastlabki o'n yillik faoliyati uchun xarakterli hol bo'ldi. Zero, adabiy merosni, xususan, XX o'zbek adabiyotini yangicha yondashuvlar asosida qayta baholash asosiy mavzulardan biriga aylanib bormoqda edi. Munaqqid o'zining "Adabiy jarayondagi g'aroyib robitalar" nomli maqolasida ayni dolzarb va murakkab masalaga o'z munosabatini bildiradi. Ya'ni, yangilanayotgan adabiy tafakkur, adabiy jarayonda kechayotgan hodisalardan tortib milliy-madaniy qadriyatlarini, birinchi galda

sho'ro davrida yaratilgan asarlarni qayta baholash masalasiga qaratar ekan, ularni qanday mezonlar asosida tadqiq etish haqida bahs yuritadi. Olim adabiy jarayonda kechayotgan bir-biriga zid, qarama-qarshi qarashlarga munosabat bildirar ekan, har bir davrni o'zining xarakterli tomonlaridan kelib chiqib baholash zarurligini ta'kidlaydi:

"Kezi kelganda aytib o'tay: adabiy jarayondagi mafkuraviy-siyosiy jihatdan farq qiluvchi yo'nalishlar xususidagi bahs-munozaralar qisman milliy madaniyatimizni sinfiy jihatdan keskin ikkiga ajratib tekshirish, baholashdan iborat va yaqin o'tmishda ko'p chalkashliklarga, og'ir musibatlariga olib kelgan mash'um ta'limotni qayta tiriltirishga urinishday taassurot qoldiradi. Adabiyotga, adabiyot tarixiga tor sinfiy-partiyaviy yondashishdan iborat bo'lgan bunday yo'l o'zini oqlamay, g'ayriilmiy usul sifatida rad etildi." (Qarang: Normatov U. Ijod sehri.-T.: 2007. –B.24.)

Ayni shu holat munaqqid ilmiy izlanishlarining muhim bir yo'nalishini tashkil etadi. Shu ma'noda U.Normatovning istiqlol yillaridagi ilmiy izlanishlarida A.Qodiriy va A.Qahhor ijodini yangicha yondashuvlar asosida tadqiq etish salmoqli o'rin tutadi. Olimning A.Qodiriy ijodiga bag'ishlangan "Qodiriy bog'i", "O'tkan kunlar" hayrati", "Qodiriy mo'jizasi" kabi kitoblarida adib ijodi badiiy mahorat nuqtayi nazaridan qayta baholanadi. "Qodiriy mo'jizasi" kitobi adabiyotshunos B.Karimov ta'biri bilan aytganda "...adabiyotshunos olim ijodiy biografiasidagi bosh mavzu va bosh kitobdek taassurot qoldiradi". Ushbu fikrlarni A.Qahhor haqidagi izlanishlariga ham aytish mumkin. Zero, U.Normatov A.Qahhor ijodini doimiy ravishda kuzatib bordi. M.Qo'shjonov bilan hammualliflikda chop etilgan "Mahorat sirlari" kitobidan tashqari mustaqillik yillarida "Qahhorni anglash mashaqqati", "Ustoz ibrati" kabi kitoblarini chop ettirdi. 80- 90 yillarda Qahhor ijodi, ayniqsa "Sarob" romani yuzasidan, adabiy jarayonda ko'plab bahs-munozaralar bo'lib o'tdi. Olim bu bahslarga o'zining faol munosabatini bildirib, "Sarob" romani peshqadam tanqidchilar tomonidan allaqachon adashganlar fojiasini, inson tabiatiga xos xudbinlik psixologiyasini tasvirlovchi asar sifatida e'tirof etilgani va ayni shu xususiyati uning yashovchanligini ta'minlayotgani bayon etildi.

Xulosa qilib aytganda, ustoz U.Normatov o'zining ilmiy-ijodiy faoliyatida doimo jo'shqin, qaynoq adabiy muhit bilan bab-baravar qadam tashladi, o'zining ko'plab ilmiy izlanishlari bilan uning tamoyillari yuzaga kelishiga o'z hissasini qo'shdi.